



**MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI ASOSIDA “MURUNTOV” KONI
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

SHukurov Mirjalol Madamin o'g'li

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

konchilik fakulteti 27M-24KIEA guruh magistranti

e-mail: shukurovmirjalol132@mail.com¹

ANNOTATSIYA: *“Muruntov” kon hududidagi konchilik korxonalari geografik joylashuv parametrlariga ko‘ra to‘g‘ri keladigan muqobil energiya manbalar turlarini aniqlash va hududga to‘g‘ri keladigan muqobil energiya manbalar turlari tahlili va taklifi.*

Kalit so‘zlar: *konchilik, korxona, muqobil energiya, parametr, geografik.*

ANNOTATION: *Determination of the types of alternative energy sources corresponding to the parameters of the geographical location of mining enterprises in the territory of the "Muruntau" deposit, as well as analysis and proposal of the types of alternative energy sources corresponding to the territory.*

Keywords: *mining, enterprise, alternative energy, parameter, geographical.*


Mamlakatimizda NKMK (Navoiy kon metallurgiya konbinati) aksiyadorlik jamiyatining MKB (Markaziy kon boshqarmasi) tarkibiga kiruvchi “Muruntov” konida rudani qazib olish va qayta ishlash jarayonida eng zamonaviy texnologiyadan foydalaniladi. Muruntov koni hududidagi konlardagi ruda tarkibi foydali komponentlarga boyroq hisoblanadi. Muruntov koni 3,5 km uzunlik, 2,7km eni, 600metr chuqurligi bilan dunyo reytingida 2-o‘rinni egallamoqda

Bugungi kunda “Muruntov” konida har ikkala gidravlik va elektr uskunalari qo‘llanilmoqda. Shu sababli kon hududiga yuqori quvvatli elektr ta‘minoti tizimi keltirilgan va kon hududida juda yuqori elektr istemoliga ega hisoblanadi. Shularni hisobga olgan holda “Muruntov” koni energiya samaradorligini oshirish maqsadida muqobil energiya manbalaridan foydalanish maqsadga muvofiq yechim

hisoblanadi. Muqobil energiya manbalari salohiyatidan kon hududida foydalanish korxona uchun iqtisodiy tomondan samarador, maqbul yechim hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo tajribasida muqobil energiya manbalarining 3ta asosiy turidan keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda, ya'ni: quyosh elektr stansiyalari, shamol elektr stansiyalari va gidro elektr stansiyalardir.

Quyosh elektr stansiyasi bu quyosh panellari orqali elektr energiya ishlab chiqarishi hisoblanadi. Bugungi kunda kon hududida quyosh elektr stansiyasidan foydalanilmoqda. Bu stansiya (quyosh panellari) orqali elektr energiyani ma'lum miqdorda tejashga erishilmoqda. Lekin quyosh energiyasida korxona hududida keng foydalanish imkoniyatiga ega emas Sababi kon hududida burg'ilash portlatish ishlari uzluksiz amalga oshiriladi va ob'yekt o'tachangli hudud hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, Muruntov koni hududi shamolli hudud hisoblanadi.

Shamol ko'p bo'lishini hisobga olgan holda kon hududida shamol generatorlaridan foydalanish maqsadga muvofiq holat hisoblanadi. Ushbu faktorlarni hisobga olgan holda Muruntov koni hududida quyosh panellarining ustki qismini tez vaqtda chang zarrachalari qoplab olishini hisobga oladigan bo'lsak quyosh panellari ob'yekt uchun samarasiz manba hisoblanadi [1]. Buning natijasida panellar o'zining normasidagi elektr energiyasini ishlab chiqarolmaydi. Quyosh panelini yuzini tozalaydigan qo'shimcha uskuna esa qo'shimcha xarajat talab qiladi. Bu esa o'z-o'zidan korxona iqtisodiga ham sezilarli ziyon keltiradi.



Yuqoridagilarni hisobga olgan holda "Muruntov" koni hududida shamol elektrstansiyalaridan foydalanish iqtisodiy tomondan samarali va foydali hisoblanadi. Shamol generatorlari shamol tezligidan foydalangan holda elektrenergiya ishlab



chiqaradi. Quyidagi jadvalda Yevropaning “TESUP” kompaniyasi tomonidan olingan shamol tezligining o'zgarish qiymatlari keltirilgan [2].

“Muruntov” koni hududida shamol tezligining o'zgarish qiymatlariga to'g'ri keladigan qiymatlar

1-jadval.

	Yanvar		Fevral		Mart	
Vaqtdavri	O'rtachashamolt ezligi	Elektrenergiyai shlabchiqarish kWh	O'rtachasha moltezligi	Elektrenergiya ishlabchiqaris h kWh	O'rtacha shamolt ezligi	Elektrenergiyaishlab chiqarish kWh
12.00-13.00	12 m/s	6,153	15 m/s	7,032	15 m/s	7,032
13.00 - 14.00	10 m/s	4,372	13 m/s	6,762	18 m/s	7,032
14.00 - 15.00	8 m/s	2,765	13 m/s	6,762	17 m/s	7,032
21.00 - 22.00	15 m/s	7,032	18 m/s	7,032	9 m/s	3,71
22.00 - 23.00	17 m/s	7,032	18 m/s	7,032	15 m/s	7,032
		27,354 kWh		34,62 kWh		31,838 kWh

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, “Muruntov” koni hududida energiya samaradorligiga erishish uchun muqobil energiya manbasi hisoblangan shamol generatorlaridan foydalanish iqtisodiy tomondan samarador yechim ekanligini yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кажинский Б.Б. Гидроэлектрические и ветроэлектрические станции малой мощности. М.: Госпланиздат, 2002г., 157стр.
2. O'zbekistonrespublikasiPrezidentining 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422 sonliqarori.